

IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY
NAZORATNING AHAMIYATI

Bekzod Fayziyev, Go'zal Fozilova, Dilnoza Ikramova
TDIU SMMT-77 guruh talabalari

So‘nggi yillarda aholining turmush sifatini tubdan yaxshilashga qaratilgan bunyodkorlik ishlari jadal sur’atlar bilan olib borilmoqda. Biznes yuritishning huquqiy asoslari mustahkamlanmoqda va institutsiyaviy mexanizmlari takomillashtirilmoxda, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish choralari ko‘rilmoxda. Shu bilan birga, byudjet mablag‘larini talon-toroj qilish va ulardan maqsadsiz foydalanish holatlari saqlanib qolmoqda, bu esa olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Bugungi islohotlar har qanday moliyaviy mablag‘dan samarali foydalanishni talab etadi. Zero, Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, “Byudjet mablag‘laridan samarali foydalanish tizimini yanada takomillashtirish zarur. Byudjet hisobidan mablag‘ ajratiladigan har qanday dastur yoki loyihaning sifat va miqdor ko‘rsatkichlaridan iborat, natijaga yo‘naltirilgan indikatorlari bo‘lishi kerak”¹. Bu esa o‘z navbatida moliyaviy nazoratni samarali amalga oshirishni talab etadi.

Moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanish, ualardan tejamkorlik asosida foydalanish, moliyaviy nazoratni takomillashtirish doimo mamlakatimiz rahbariyatining diqqat-e’tiborida bo‘lib kelmoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev bu borada fikr yuritar ekan, quyidagilarni ta’kidlaydi: “Albatta O‘zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kuchli moliyaviy, davlat byudjeti o‘lchovsiz emas, mablag‘larni qattiq tejash, belgilangan maqsad uchun va oqilona ishlatishni ta’minalash zarur. Bu - hammaga ravshan va rad etib bo‘lmaydigan haqiqat. Shunday ekan, nima uchun G‘aznachilik va Nazorat-taftish boshqarmasining apparatlari haddan tashqari kengayib ketgan? Ularda jami 4 ming nafar xodim ishlaydi va ularning xarajatiga yiliga 90 milliard so‘m davlat mablag‘i sarflanadi. Ana shu uzilmalar rahbar va xodimlari shunday tasavvur bilan yashamoqdaki, ularning vazifasi go‘yo faqatgina nazorat qilish va boshqalarni jazolashdir.Lekin faqat qamchi va qilich bilan ijobjiy natjalarga erishib bo‘ladimi? Bu - nafaqat xato fikr, balki chuqur yanglishish, deb hisoblayman. Bu borada profilaktika ishlarini kim samarali olib boradi?”²

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <http://www.aza.uz>. 28.12.2018 y.

² Mirziyoyev Sh. “Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. T.: “O‘zbekiston”-2017 y.- 104 b.

Davlat byudjeti mablag'larini shakllantirish va ulardan oqilona foydalanishga samarali nazorat tizimini shakllantirmasdan turib erishib bo'lmaydi. Ma'lumki, byudjet jarayonining asosiy bosqichlaridan biri davlatning moliyaviy nazorati hisoblanadi. Moliyaviy nazorat mamlakatimizda amalga oshirilayotgan nazorat faoliyatining tarkibiy qismi hisoblanadi. Byudjet mablag'laridan foydalanish yuzasidan davlat moliyaviy nazorati moliyaviy barqarorlik uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan davlat moliyaviy siyosatini ifodalaydi. Davlat moliyaviy nazoratining bosh maqsadi davlat xazinasiga resurslarni tushirishni maksimallashtirish va byudjet mablag'laridan samarali hamda oqilona foydalanishni ta'minlashdan iborat. Bu borada esa moliyaviy nazorat organlari faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev nazorat qiluvchi organlar faoliyatini tanqid qilib, shunday deb ta'kidladilar: "Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashi faoliyati davr talabiga javob bermayapti. Buni ochiq tan olish kerak³". Iqtisodiyotni rivojlantirishda moliyaviy nazoratini mustahkamlash va uni yanada kuchaytirish, moliyaviy nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish muammosi hamisha dolzarb masala bo'lib kelgan va hozirgi sharoitda ham dolzarbligicha qolmoqda. Bu esa mazkur sohada ilmiy tadqiqotlar olib borishning naqadar muhimligini yanada aniqroq ko'rsatib beradi.

Hozirgi kunda moliyaviy nazoratning asosiy maqsadi tekshirilayotgan obyektda mavjud bo'lgan haqiqiy holatni ob'yektiv o'rghanish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ijro etishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash yoki oldini olishdan iborat. Moliyaviy nazoratni tashkil etish bu moliyaviy resurslarni boshqarishning majburiy elementi hisoblanib, bunday boshqaruv jamiyat oldidagi javobgarlikni aks ettiradi. Nazorat bu oxirgi maqsad hisoblanmaydi, nazorat bu boshqarish tizimining ajralmas qismi bo'lib, mamlakat iqtisodiyoti va moliya tizimining samarali amal qilishining zaruriy shartidir. Moliyaviy nazorat jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarish ustidan davlat nazoratining tarkibiy elementi bo'lib hisoblanadi.

Nazorat boshqarish siklining shakli sifatida qabul qilinayotgan yoki qabul qilingan boshqaruv qarorlarining asoslanganligi va samaradorligini baholash, bu qarorlarning amalga oshirilish darajasini haqiqiy natijalarning o'rnatilgan parametrlari va me'yoriy ko'rsatmalardan og'ish (farq qilish) darajasini aniqlash va salbiy holatlarni bartaraf etishga qaratiladigan boshqaruv qarorlarini qabul qilish maqsadida boshqariluvchi ob'yekt faoliyatini kuzatish, solishtirish, tekshirish va tahlil qilish tizimidir⁴. Davlat moliyaviy nazoratning boshqaruv tizimining asosiy elementi bo'lgan umumiyliz nazorat tizimidagi muhim o'rni va ahamiyati shundaki, birinchidan, moliya

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <http://uza.uz>. 22.12.2017 y.

⁴ Nuritdinova V., Sharapova M. Moliyaviy nazorat. O'quv qo'llanma.T.: "IQTISOD-MOLIYA" 2014 y. 8- bet

o‘zi iqtisodiy kategoriya sifatida ob‘yektiv tarzda nazorat funksiyasini bajaradi; ikkinchidan, bozor iqtisodiyotida moliyaviy munosabatlarning roli oshib boradi.

Professor M.M.To‘laxo‘jaeva bergen ta‘rifga ko‘ra: “Moliyaviy nazorat – davlat tomonidan tashkil etilgan, nazorat qilish vazifalari yuklatilgan davlat yoki mustakil jamoat organlari tomonidan xukumat, korxonalar, tashkilotlar va muassasalar faoliyatining samaradorligini aniqlashga qaratilgan nazorat tizimidir. Davlat byudjetini shakllantirish va sarflashdagi zaxiralarni, moliyaviy va moddiy resurslarni boshqarishning barcha darajalarida operatsiyalarning maqsadga muvofiqligi va samaradorligini, qonuniylik printsiplaridan chetga og‘ish va ularni buzishlarni aniqlash nazorat tizimi vazifasiga kiradi. Nazorat maqsadi–tuzatish choralarini ko‘rish, aybdorlarni javobgarlikka tortish va buzishlarning oldini olishdan iborat”⁵.

Taniqli olimlarimiz professorlar A.V.Vahobov va T.S. Malikovlarning fikricha, barcha iqtisodiy sub‘yektlarning (davlat, korxona va tashkilotlarning) moliyaviy faoliyati ustidan qonunchilik va ijroiya hokimiyati organlarining turli darajalari, shuningdek maxsus tashkil etilgan muassasalar tomonidan amalga oshiriladigan nazoratga moliyaviy nazorat deyiladi. Bu nazorat, eng avvalo, pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish jarayonida moliyaviy-iqtisodiy qonunshilikka rioya etilishi, moliyaviy-xo‘jalik operatsiyalarining samaradorligini baholash va amalga oshirilgan xarajatlarning maqsadga muvofiqligi ustidan nazoratni o‘z ishiga oladi. Boshqacha so‘zlar bilan aytganda, moliyaviy nazorat u yoki bu moliyaviy harakat sodir bo‘lishining baholashni o‘z ichiga olish bilan cheklanmasdan, balki u o‘zining analitik yo‘nalishiga ega⁶.

Yuqorida keltirilgan ta‘riflarni umumlashtirgan holda aytadigan bo‘lsak, moliyaviy nazorat – bu faoliyat yurituvchi xo‘jalik sub‘yektlarining moliyaviy muomalalarini o‘rnatalgan qonun-koidalar doirasida amal qilinishini ta‘minlovchi ularning samaradorligini tahlil qiluvchi va ularni kelgusida takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiquvchi mas‘ul organlarning aniq maqsadga yo‘naltirilgan faoliyati. Moliyaviy nazoratning maqsadi bu chunchaki faqat nazorat emas, balki uning maqsadi ahvolni to‘g‘rilash choralarini ko‘rish, ayrim hollarda aybdorlarni javobgarlikka tortish, etkazilgan zarar uchun tovon undirib olish yoki kelgusida bunday buzilishlarning oldini olish yoxud kamaytirish imkoniyatiga ega bo‘lish uchun imkonli boricha dastlabki bosqichda qabul qilingan standartlardan chekinishlarni va konun qoidalarning buzilishlarini oldini olish, moddiy resurslarning samaradorligini oshirish va tejab sarflanishini aniqlashdan iboratdir.

Demak, moliyaviy nazorat yordamida birinchidan, davlat va jamoat tashkilotlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fuqarolar tomonidan o‘z moliyaviy faoliyatlarida huquqiy tartibga rioya etilishini kuzatib borish; ikkinchidan, amalga oshirilayotgan

⁵ To‘laxo‘jaeva M.M. O‘zbekiston Respublikasi moliyaviy nazorat tizimi T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 1998 yil. 26-bet.

⁶ Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya: umumnazariy masalalar.O‘quv qo‘llanma.T.:“IQTISOD-MOLIYA” 2008 y. 16-bet

moliyaviy harakatlarning iqtisodiy asoslanganligi va samaradorligini, bu harakatlarning davlat oldida turgan vazifalarga muvofiq kelishini tekshirish amalga oshiriladi. Shunday qilib, moliyaviy nazorat moliyaviy faoliyatni amalga oshirish paytida qonunchilikka rioya etish, xarakatlarni maqsadga muvofiqligini ta‘minlashning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanimgan adabiyotlar ro’yxati:

1. T.S. Malikov, O. Olimjonov. Moliya - O 'quv qo 'llanma. T.: "Iqtisod-moliya, 2012
2. T. Malikov, N. Xaydarov. Davlat byudjeti - T.: " Iqtisod-moliya, 2007
3. А.Ваҳобов, Т.Маликов. Молия: дарслик. - Т.: Ношир, 2011
4. T.Malikov, N.Haydarov - Budjet daromadlari va xarajatlari. О 'quv qo 'llanma, Toshkent:"IQTISOD-MOLIYA, 2007
5. Т.С. Маликов, П.Т. Жалилов. Бюджет-солик сиёсати. - Тошкент: Академнашр, 2011
6. Malikov TS, Moliya HN. umumdavlat moliyasi./O 'quv qo 'llanma. Toshkent:"Iqtisod-moliya. 2009;556.
7. Т.Маликов, О.Олимжонов. Молиявий менежмент. - Т.: Академия, 1999
8. А.Ваҳобов, Т.Маликов. Молия: умумназарий масалалар - Ўкув қўлланма. Тошкент,"Iqtisod-moliya, 2008
9. Ваҳобов АВ, Маликов ТС. Молия. Дарслик/Тошкент Молия институти. Тошкент:"Шарқ. 2010;804.
10. Yunusovich OR. Abduazimova Farzona Axmadqul qizi. Davlat maqsadli jamg'armalarining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi ahamiyati.“. Science and Education” Scientific Journal/ISSN. 2022 Jun:2181-0842.
11. Ўроқов, У. "Ғазначилик тизимида бюджет маблағларидан самарали фойдаланиш масалалари.“." (2017).
12. Ўроқов, У. "Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари.“." (2017).
13. Urokov, Uchqun Yunusovich, and Zulayho Abdujobir Qizi Tursunova. "Actual issues in the management of external debt." Science and Education 3.12 (2022): 1023-1029.
14. Ўроқов У Ғайбуллаев О.Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни: ўқув қўлланма. Тошкент: Baktria press.-21 б, 2016
15. Ўроқов У. и др. Маҳаллий бюджетлар даромадларининг ўзига хос хусусиятлари манбанини оширишда инновatsion менежментни ривожлантириш//Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 5-8.
16. У Ўроқов.Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишни такомиллаштириш йўллари: И. ф. н. илм. дар. ол. уч. ёз. дисс. Автор.2020

17. У. Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг хукуқий асослари.- *Science and Education*, 2023. Т4, №5, 1550-1564
18. Ўроқов, У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақилигини оширишнинг замонавий муаммолари.“. Молия тизимини ривожлантиришнинг замонавий тенденсиялари ва истиқболлари”. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022йил, 27.
19. Ўроқов, У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари.“. In Ҳудудларни ижтимоий-иктисодий ривожланишида молиянинг роли” мавзусидаги республика ўқув юртларапо конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).
20. Ўроқов, У. "Маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари.<<" (2017).
21. Ўроқов, У. "Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар.<<" (2020).
22. Ўроқов, У. "Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишга оид назарий қарашлар.<<" Ўзбекистоннинг халқаро молия тизимига интегратсиялашувни кучайтириш йўллари” мавзусидаги республика илмий-амалий конференция. ТМИ. 2020.
23. Уроков, У. "Махаллий бюджетлар молиявий баркарорлигини белгиловчи курсаткичлар.<<" Молия-кредит тизимининг иктисодиётнинг реал сектори билан узаро муносабатларини институционал ривожлантириш" мавзусидаги халқаро (2020).
24. Ўроқов У. Ўзбекистон Республикасининг бюджет кодекси: моҳияти, аҳамияти ва афзаллликлари.“. Молия” журнали. 2014.
- 25.Хайдаров Н. Давлат молиясини бошқариш. Т.:«Академия. 2005.
- 26.Хайдаров Н Т. Маликов-Бюджет: тизими, тузилмаси, жараёни. Ўқув кўлланма. 2007.
- 27.G‘aybullayev, U O‘roqov.O ‘zbekiston Respublikasida budget tizimi va jarayoni. O ‘quv qo‘llanma. - T.: Baktriapress, 2016